**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**
**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Ro‘yxatga olindi:
№ _*BD-5120300-*____
“___” _______201_ yil

Samarqand davlat universiteti
rektori
__________ I.Xalmuradov
2019yil “___” ____________

# XX ASR IKKINCHI YARMIDA XXI ASRNING BOSHLARIDA YAQIN SHARQDAGI SIYOSIY INQIROZ» (TANLOV FAN) FANINING O‘QUV DASTURI

| | | |
|---|---|---|
| Bilim sohasi: | 100000 | – Gumanitar soha |
| Ta’lim sohasi: | 120000 | – Gumanitar fanlar |
| Ta’lim yo‘nalishi: | 5120300 | – Tarix (yo’nalishlar va mamlakatlar bo’yicha) |

**Samarqand – 2019**

Fan dasturi Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti kengashida ko‘rib chiqilgan va tavsiya qilingan (201_ yil “___” _________dagi “___” -sonli bayonnoma).

**Fakultet dekani:** **dots.D.M. Djurakulova**

Fan dasturi Samarqand davlat universitetida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchilar:**

| | | |
|---|---|---|
| Elimov.L.Sh | - | SamDU Tarix fakulteti, Jahon tarixi kafedrasi o`qituvchisi |

**Taqrizchilar:**

| | | |
|---|---|---|
| Handamova M. | - | SamDChTI ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi |
| Rahmatullayev M.R. | - | SamDU Tarix fakulteti, Jahon tarixi kafedrasi o’qituvchisi, t.f.n. |

Fanning dasturi Samarqand davlat universiteti o‘quv-uslubiy kengashining 201_ yil “___”________dagi “____”-son majlis bayoni bilan ma’qullangan.

**O‘quv uslubiy Kengash raisi:** **prof.A.S.Soleev**

## I. O’quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta’limdagi o’rni

Tanlov fan jahon tarixining uzviy bir bo’lagini tashkil etadi. Shuning uchun ham fan bo’yicha talabalarning bilimiga, ko’nikma va malakasiga qo’yiladigan talablar jahon tarixi fanini o’qitishda talabalarga qo’yiladigan talablardan kelib chiqadi.

«XX asr ikkinchi yarmida XXI asrning boshlarida Yaqin Sharqdagi siyosiy inqiroz» tanlov fanini o’zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- Yaqin Sharq muammosi va Isroil, Arab Davlatlari Ligasi, Isroil davlatining tashkil topishi, Falastin urushidan keyingi arablararo munosabatlar, Misr, Quvayt va Suvaysh inqirozlari, Falastin Ozodlik tashkiloti, Falastin milliy ozodlik harakati, Bag’dod pakti, Bandung konferensiyasi, Kemp-Devid shartnomasi to’g’risida *bilishi kerak;*
- XX asr ikkinchi yarmida XXI asrning boshlarida Yaqin Sharqdagi siyosiy inqirozni kelib chiqish sabablarini, Yaqin Sharq davlatlari tarixini, dinini, ijtimoiy - iqtisodiy va madaniy hayoti to’g’risida *ko’nikmalariga ega bo’lishi kerak;*

Falastin arablarining XX asr 20-30 yillaridagi Milliy Ozodlik kurashi, BMT va Falastin muommasi, «Olti kunlik» urush va Sosialistik davlatlarning bu urushga munosabati, Iroq-Eron urushi (1980-1988 yy.), Livandagi fuqarolar urushi (1975-1990 yy.), Isroil-Livan mojarosi (1982-2000 yy.), shuningdek, Saddam Xusayn, Xusni Muborak, Jamol Abdul Nosir, Anvar Saodat va boshqa Yaqin Sharq mamlakatlari rahbarlarining ichki va tashqi siyosatini, shu bilan bir qatorda Yaqin Sharq mamlakatlarining hozirgi bosqichdgi tashqi siyosati *malakalariga ega bo’lishi kerak.*

## II. O’quv fanining maqsadi va vazifalari

«XX asr ikkinchi yarmida XXI asrning boshlarida Yaqin Sharqdagi siyosiy inqiroz» (tanlov fan) fani jahon tarixi fanlar majmuasiga taalluqli bo’lib, talabalar uni ta’lim yo’nalishlaridan kelib chiqib bir semestr davomida o’rganishadi.

«XX asr ikkinchi yarmida XXI asrning boshlarida Yaqin Sharqdagi siyosiy inqiroz» (tanlov fan) fanining asosiy maqsad XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asrning boshlarida Yaqin Sharqda rqy bergan siyosiy inqirozlar tarixini o’rgatish. Shundan kelib chiqib quyidagi fan quyidagi vazifalarni bajarishni maqsadga muvofiq deb biladi:

- Yaqin Sharqda ro’y bergan inqirozlarning kelib chiqish sabablarini tahlildan o’tkazish;

- Ushbu mintaqadagi davlatlar tarixida ushbu keskinlarning natijalarini va oqibatlarini ochib berish;
- Jahon tarixi jarayonida Yaqin Sharq inqirozining ta’sirini ko’rsatish;

Xalqaro munosabatlar tizimida Yaqin Sharq omilini tahlil etish

## III. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg’ulotlari)

### Arab mamlakatlari xalqlarining milliy ozodlik kurashi (1945-1951 yillar)

Predmetning maqsadi va vazifalari. Yaqin va O’rta Sharq mintaqasiga oid tarixiy va jug’rofiy sharx. Yaqin Sharqdagi siyosiy inqiroz muammosi tarixiy adabiyotlarda.

Misr, Iordaniya va Iroq xalqlarining ingliz mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashi. 1946 yil 25 oktyabrdagi Misr – Angliya shartnomasi. Misr xalqining 1947 – 1951 yillardagi milliy ozodlik kurashi va Misr parlamentining 1951 yil. 15 oktyabrda qabul qilingan qonuni. 1946 yildagi Angliya – Transiordaniya va 1948 yildagi Angliya – Iroq shartnomalari. Suriya va Livan xalqlarining fransuz mustamlakachilariga qarshi kurashi. Arab Davlatlari Ligasi maqsadi va vazifasi.

### Falastin muammosi

Falastin hududi Angliya mandati ostida. Falastin arablarining XX asr 20-30 yillaridagi milliy ozodlik kurashi. Transiordaniya amiri Abdullaning «Buyuk Suriya» davlatining barpo etish rejasi. Nuri Saidning «Ezgulik yarim oyi». «Yahudiylar agentligi» va «Oliy arab qo’mitasi»ning faoliyati. Lord Pil komissiyasining xulosasi (1936). «Doira stoli konferesiyasi» (1939). «Oq kitob» («Makdonald memorandumi»). Sionistlarning «Biltmor» dagi dasturi (1942). Yahudiylar agentligining talablari (1945). Prezident G.Trumenning falastin masalasi bo’yicha taklifi. «Bevin rejasi». A.D.L.ning falastin masalasi bo’yicha ilgari surgan pozisiyasi. BMT Bosh Assambleyasining II sessiyasida qabul qilingan qaror (1947 yil, sentyabr). BMT Bosh Assambleyasining 181 rezolyusiyasi.

### Suvaysh inqirozi. Misrga qarshi Angliya, Fransiya va Isroilning agressiyasi

1955 yilgi Isroil-Misr harbiy to’qnashuvlar. 1956 yil 26 iyuldagi J.A.Nosirning bayonoti. Suvaysh kanalining nasionalizasiya qilinishi. G’arb davlatlarining «baynalmilallashtirish» siyosati. «Uchlar agressiyasi»ning boshlanishi, borishi va natijasi. «Uchlar agressiyasi» vaqtida SSSRning pozisiyasi. Suvaysh inqirozidan keyin arab va g’arb mamlakatlari orasidagi munosabatlarning keskinlashishi. «Eyzenxauer doktrinasi». Turkiya va NATO tomonidan Suriya chegaralari atrofida harbiy xavfning yuzaga keltirilishi. Birlashgan Arab

Respublikasining (BAR) e’lon qilinishi va uning taqdiri. Xoshimiylar federasiyasi. Iroq – Iordaniya Ittifoqi va uning taqdiri. Misr inqilobi, xarakteri va natijalari. Respublika e’lon qilinishi. 1953-1954 yillardagi Misr–Angliya muzokaralari va ingliz qo’shinlarining Suvaysh kanali zonasidan olib chiqilishi. J.A.Nosirning «Inqilob falsafisi» asari va uning mohiyati. Bandung konferensiyasi. «Pancha shila». Misr va G’arb davlatlari o’rtasida siyosiy, savdo va iqtisodiy munosabatlarning yomonlashuvi. 1956 yildagi Misr konstitusiyasi.

**Falastin Ozodlik Tashkiloti (F.O.T.)ning tashkil topishi**

1948-1949 yillardagi Isroil-arab urushidan keyin falastin arablarining ahvoli. Falastin milliy ozodlik harakati (FATH)ning tashkil topishi (1956). Falastin muammosi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Arab Davlat Ligasi diqqat markazida. «Kennedi rejasi» (1963). Falastin Ozodlik Tashkiloti (FOT)ning tashkil topishi (1964). Milliy xartiya.

**Yaqin Sharq mintaqasi atrofida siyosiy vaziyat (60-yillar oxiri – 70-yillar boshi)**

Gunnar Yaring missiyasi va Yaqin Sharqda siyosiy barqarorlik uchun bo’lgan urinishlar. J.A.Nosirning reja-jadvali (1968). BMT XXVI sessiyasida qabul qilingan qarorning loyihasi. Liviyadagi davlat to’ntarishi (1969) Ummon, Baxrayn, Birlashgan Arablar Amirligida (BAA) anti-imperialistik kurashning avj olishi va fors qo’ltig’ida mustaqil arab davlatlarining vujudga kelishi.

Iordaniyadagi 1970 yil sentyabr voqyealari va arab davlatlarining unga bo’lgan munosabatlari. Afrika Birdamlik Tashkilotining (ABT) Yaqin Sharq muammosiga yangicha qarashlari.

**Anvar Saodat: ichki va tashqi siyosatidagi o’zgarishlar (1970-1976)**

Anvar Saodat Misr prezidenti. Misrda «tuzatish harakati» va uning mohiyati. Anvar Saodatning «Milliy harakatlar Dasturi». 1971 yil konstitusiyasi. «SSSR va Misr Arab respublikasi o’rtasida do’stlik va hamkorlik to’g’risidagi shartnoma»ning imzolanishi (1971 yil, 27 may) Anvar Saodatning Yaqin Sharq inqirozi bo’yicha yangicha qarashlari. AQSh bilan yaqinlashish. Misr-Eron munosabatlari. Falastin muammosi. Anvar Saodatning rejalarida. 1973 yildagi Arab-Isroil urushi. Jeneva tinchlik konferensiyasi. 1974, 1975 yillardagi Sinay shartnomalari. Misr va SSSR o’rtasidagi 1971 yilgi shartnomaning bekor qilinishi. A.Saodatning Isroilga tashrif buyurishi. «Begin rejasi». 1978 yilning 5-17 sentyabrdagi J.Karter, M.Begin, A.Saodatning KEMP-Deviddagi uchrashuvi.

«Yaqin Sharqdagi tinchlik chegaralari» va «Misr va Isroil o’rtasida tinchlik shartnomasining chegaralari»ning imzolanishi. 1979 yilning 26 martida AQSh, Misr va Isroil rahbarlarining navbatdagi uchrashuvi va Misr-Isroil tinchlik shartnomasining imzolanishi. A.Saodatning KEMP-Devid siyosatining oqibati. Arablararo munosabatlardagi yangi bosqichning yuzaga kelishi.

**S.Xusayn diktaturasining qulashi. Yaqin Sharqda tinchlik o’rnatish yo’lidagi urinishlar**

XX asr oxiri va XXI asrning boshlarida Iroqning ichki va tashqi siyosati. Arablar dunyosida «yetakchilikni» qo’lga kiritish va mamlakatni militarlashtirishi. Iroqning Kimyoviy qurollari bo’yicha MAGATE komissiyasining xulosasi. 2003 yildagi koalision (AQSh) kuchlarning Iroqqa qarshi navbatdagi zarbasi va S.Xusayn diktaturasining qulashi. AQSh tomonidan Iroqda o’rnatilgan okkupasion tartibot. Iroq muvaqat hukumat davrida. 2005 yil Iroqdagi saylovlar va milliy hukumatning vujudga kelishi. Al Maliki. Mamlakatning hozirgi bosqichdagi ahvoli.

**Saudiya Arabistoni va Yaqin Sharqdagi siyosiy inqiroz**

Saudiya Arabistonining iqtisodiy va siyosiy o’rni. Ibn Saud. Mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integrasiyalashuvi. «Neft qazib chiqarish bo’yicha arab-amerika kompaniyasi» (ARAMKO). Qirol Faysalning ijtimoiy-iqtisodiy islohotlari. Saudiya Arabistonining Yaqin Sharq inqirozida tutgan pozisiyasi. «Mutadillar» guruhining yetakchisi. Saudiya Arabistoni va Amerika Qo’shma Shtatlari. Saudiya Arabistoni hozirgi bosqichda.

**Yaqin Sharq muammosi va Isroil**

Birlashgan MIllatlar Tashkilotining 181 qarori. Isroil davlatining tashkil topishi. Davlat tuzimi. 1948-1951 yillardagi ommaviy aliya (yahudiylarning Falastinga ommaviy tarzda kelishi va o’rnashib olishi). 1950-1955 yillarda Isroilning tashqi siyosati va chegaralardagi ahvol. Sinay kompaniyasi va uning oqibatlari (1956). Siyosiy partiyalarning Yaqin Sharq muammosidagi qarashlari. «Olti kunlik urush». 1973 yil oktyabr urushi. M.Begin hukumati. Isroilning Livandagi voqyealarga munosabati. Milliy birlik hukumatining tashkil topishi. Sh.Peres. I.Shamir. birinchi intifadadan Madrid konferensiyasigacha (1987-1991). Oslodagi kelishuv. Tamoyillar deklarasiyasi (13 sentyabr, 1993). «Oslo-2» shartnomasining imzolanishi (1995 yil, 25 sentyabr). Ikkinchi (al-AKS) intifadasi davrida Isroil (2000-2004) Ariel Sharon. B.Netaniyaxu hukumatining Yaqin Sharq mintaqasidagi siyosati.

## IV. Seminar mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarida magistrantlar "XX asr ikkinchi yarmida XXI asrning boshlarida Yaqin Sharqdagi siyosiy inqiroz" fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, seminarlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar va tarixiy manbalar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim oladilar. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

"XX asr ikkinchi yarmida XXI asrning boshlarida Yaqin Sharqdagi siyosiy inqiroz" fani bo'yicha seminar mashg'ulotlarining tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Arab Davlatlari Ligasi: maqsadi va vazifasi
2. Falastin hududi va Angliya mandati
3. Isroil davlatining tashkil topishi va 1948-1949 yillardagi Falastin urushi
4. Misr inqilobi. Yaqin Sharq mintaqasida siyosiy vaziyatning keskinlashuvi
5. XX asrning 60-yillarida arab davlatlarining tashqi siyosati
6. Birlashgan Arab respublikasi: tashkil topishi va taqdiri
7. Yaqin Sharq mintaqasi atrofida siyosiy vaziyat (60-yillar oxiri – 70-yillar boshi)
8. Anvar Saodat: ichki va tashqi siyosatidagi o'zgarishlar (1970-1976)
9. Livan va Yaqin Sharqdagi siyosiy inqiroz
10. Saddam Xusayn diktaturasining qulashi. Yaqin Sharqda tinchlik o'rnatish yo'lidagi urinishlar
11. Saudiya Arabistoni va Yaqin Sharqdagi siyosiy inqiroz
12. Yaqin Sharq muammosi va Isroil
13. Hozirgi kunda Yaqin Sharqdagi vaziyat
14. AQSHning Yaqin Sharqqa bo`lgan munosabati
15. Eronning Yaqin Sharqqa bol`gan munosabati

***Izoh:*** Ishchi fan dasturini shakllantirish jarayonida ishchi o'quv rejada mazkur seminar mashg'ulot uchun belgilangan soat hajmidan tashqari soatlar hajmiga mos mavzular tanlab belgilanadi.

## V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limdan ko'zlangan maqsad va vazifalar – bu talabalarda mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Mustaqil ta'lim seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishdan tashqari fan dasturida ko'rsatilmagan, ammo fan bo'yicha talabaning bilim doirasini kengaytiruvchi qo'shimcha mavzular doirasida berilgan topshiriqlarni bajarishni o'z ichiga oladi.

**Mustaqil ishlar mavzusi**

1. Yaqin Sharqdagi siyosiy inqiroz muammosi tarixiy adabiyotlarda
2. Arab Davlatlari Ligasi: maqsadi va vazifasi
3. Arab mamlakatlari xalqlarining milliy ozodlik kurashi (1945-1951 yillar) (Misr, Iordaniya, Iroq, Suriya va Livan davlatlari misolida)
4. Falastin arablarining XX asr 20-30 yillaridagi Milliy Ozodlik kurashi
5. BMT va Falastin muommasi. BMT Bosh Assambleyasining 181 rezolyusiyasi.
6. Isroil davlatining tashkil topishi va 1948-1949 yillardagi Falastin urushi.
7. Falastin urushidan keyingi arablararo munosabatlar. (1949-1956 yillar)
8. Misr inqilobi.
9. Suvaysh inqirozi.
10. Bag'dod paktining tashkil topishi.
11. Bandung konferensiyasi.
12. Birlashgan Arab respublikasining e'lon qilinishi va uning taqdiri.
13. Quvayt inqirozi (1961 y)
14. Yaman: iqtisodiy va siyosiy sharx. (1962-1990).
15. Falastin milliy ozodlik harakati (FATH) ning tashkil topishi va faoliyati.
16. Falastin Ozodlik tashkiloti (F.O.T.): kecha va bugun.
17. «Olti kunlik» urush.
18. Sosialistik davlatlarning «Olti kunlik» urushga munosabati.
19. Birlashgan Arablar Amirligi: tashkil topishi, iqtisodiyoti va siyosati.
20. Anvar Saodat ma'muriyatining ichki va tashqi siyosati.
21. 1973 yildagi Arab-Isroil urushi.
22. Livandagi fuqarolar urushi (1975-1990 yy.)
23. Isroil-Livan mojarosi (1982-2000 yy.)
24. Kemp-Devid shartnomasi.
25. Xusayn diktaturasining qulashi.
26. Iroq-Eron urushi (1980-1988 yy.)
27. Saudiya Arabistoni va Yaqin Sharqdagi siyosiy inqiroz.
28. Yaqin Sharq muammosi va Isroil.
29. Suriyaning xozirgi bosqichdagi tashqi siyosati.

Xusni Muborakning ichki va tashqi siyosati

**Izoh:** Fan ishchi dasturini shakllantirish jarayonida mazkur mashg'ulot uchun ishchi o'quv rejada ko'rsatilgan soatlar hajmiga mos mavzular ro'yxati shakllantiriladi.

## VI. Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati

### Asosiy adabiyotlar


1. Барышев А.П. Ближний восток: проблемы мира на рубеже 80 – годов. М. 1979.
2. Беляев И.П. Примаков Е.М. Египет: время президента Насера. М.1974.
3. Васильев А.М. История Востока. Т.1.2. М.1998.
4. Зарубежный Восток и современность. М.1980.
5. Захаров А.М. Фомин О.И. Кэмп-Дэвид: политика, обреченная на провал М. 1982.
6. История дипломатии. Т.5. кн. 2-я. М., 1979.
7. История стран Азии и Африки в новейшее время ч-II. 1945-1977 (Под ред. М.Ф. Юрьева). М.1979.
8. Ниязматов Ш.Л. Ирано-Иракский конфликт. М., 1989.
9. Новейшая история арабских стран Азии. М.1988.
10. Новейшая история арабских стран Африки (1917-1987). М.1990.
11. Новейшая история арабских стран. М.1968
12. Новейшая история стран Зарубежной Азии и Африки. М.1983.
13. Новейшая история стран Зарубежной Азии и Африки. М.1987.
14. Примаков Е.М. Анатомия Ближневосточного кризиса. М.1978.
15. Примаков Е.М. История одного сговора. М.1985.
16. Страны Ближнего и Среднего Востока (история и экономика). М. 1972.


### Qo'shimcha adabiyotlar


1. Арабские страны: История, экономика, политика (сб. ст. ред. Колл. Р.Н. Андреасян и др.) М.1986.
2. Архипов В. Палестина глазами русского путешественника. Азия и Африка сегодня №7. 2005.
3. Васильев А.М. История Саудовской Аравии. М.1982.
4. Всемирная история. С древнейших времен до наших дней. Под. ред. Поляка Г.Б. М.1997.
5. Иран. Очерки новейшей истории. Арабаджян А.Э. Дёмин А.И. М.1976.
6. Князев А.Г. Египет после Насера. 1970-1981. М.1980.
7. Ланда Р.Г. Освободительная борьба арабов Палестины (1948-1967 гг). Народы Азии и Африки, 1976. №1.
8. Международные отношения на Балканах и Ближнем Востоке. Сб. научных трудов Ур.Г.У. им А.М.Горького. Ответ. Ред. И.Н. Чемпалов. Свердловс. 1988.
9. Нишонов М. Яқин Шарқ муаммоси ва можарони тинч ҳал этиш жараёнлари (1948-2002). Т., 2004.
10. Новичев А.Д. История Турции. Л., 1973.
11. Очерки истории Турции. Госратян М.Л. и др. М.1983.
12. Политика Англии на Ближнем и Среднем Востоке. М., 1966.
13. Розалиев Ю.Н. Новая и Новейшая история стран Азии и Африки. 1987.

14. Товмасян С.А. Ливия на пути независимости и социального прогресса. М., 1980.
15. Тума Э. Национально-осваводительное движение и проблема арабского единства. М., 1977.
16. Хидоятов Г.А. История дипломатии. Т.2004.

Internet resurslari

1. http: // history. hanover. edu/texts. htm.
2. http: // www. ancient history.spb.ru/
3. http: // www. eu. Spb.ru/history/index. htm.
4. http: // www.ucr.edu/h-gig/horuslinks.html
5. http: // www.ziyonet.uz.
6. http://www.history.kemsu.ru
7. http://www.kulichki.com
8. http://www.world.history.ru
9. www. history. ru